



Syntactic expression of endearment in Shakespeare's works

Shoira KHODJAEVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5

October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

Shakespeare,
endearment,
syntax,
literary translation,
linguistic analysis,
syntactic structure,
sentence type,
sentence elements.

ABSTRACT

This article analyses the syntactic structures used to express endearment in Shakespeare's works and examines how they are rendered in translation. Focusing on *Romeo and Juliet* and *Hamlet*, the study subjects words and expressions of endearment to syntactic analysis. It investigates how endearment operates at multiple structural levels – word, phrase, clause, and whole text – and by syntactic function (subject, predicate, attribute, object, adverbial modifier, vocative, and coordinate elements). The paper also identifies the types of grammatical transformation translators employ to convey endearment. The findings demonstrate the importance of preserving emotional and aesthetic impact through syntactic means to achieve equivalence and adequacy in translations of Shakespeare.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp46-53>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shekspir asarlarida erkalashning sintaktik ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Shekspir,
erkalash,
sintaksis,
badiiy tarjima,
lingvistik tahlil,
sintaktik struktura,
gap turi,
gap bo'laklari.

Mazkur maqolada Shekspir asarlarida erkalash ma'nosini ifodalovchi sintaktik tuzilmalar tahlil qilinadi hamda ularning tarjimada qanday ifodalanishi o'rganiladi. Tadqiqotda Vilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" hamda "Hamlet" asarlari va ularning tarjima variantlaridagi erkalashni ifodalovchi so'z va iboralar sintaktik tahlilga tortiladi. Maqolada erkalash strukturasiga ko'ra so'z, so'z birikmasi, gap va matn orqali, shuningdek, gapdagi vazifasiga ko'ra ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, undalma va uyushiq bo'laklar orqali ifodalanishi o'rganiladi. Shuningdek, tarjimonlar tomonidan erkalash ifodasini yetkazishda qo'llangan grammatik transformatsiyalar turlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari Shekspir asarlarining

¹ Independent Researcher, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: hodjaeva.s.r@gmail.com

tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlikka erishish uchun sintaktik vositalar orqali hissiy-estetik ta'sirni saqlash masalasining dolzarbligini asoslaydi.

Синтаксическое выражение ласкательных форм в произведениях Шекспира

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Шекспир,
ласка,
синтаксис,
художественный перевод,
лингвистический анализ,
синтаксическая структура,
тип предложения,
члены предложения.

В данной статье анализируются синтаксические структуры, выражающие значение ласки в произведениях Шекспира, а также рассматриваются их способы передачи в переводе. Исследование основано на пьесах Уильяма Шекспира «Ромео и Джульетта» и «Гамлет», а также их переводах. Ласкательные слова, фразы и выражения подвергаются синтаксическому анализу. В работе изучаются способы выражения ласки на различных структурных уровнях – посредством слова, словосочетания, предложения и текста, а также в зависимости от их синтаксических функций: подлежащего, сказуемого, определения, дополнения, обстоятельства, вокатива и однородных членов предложения. Кроме того, выявляются типы грамматических трансформаций, применяемые переводчиками при передаче значения ласки. Результаты исследования подчеркивают актуальность сохранения эмоционально-эстетического воздействия средствами синтаксиса для достижения эквивалентности и адекватности при переводе произведений Шекспира.

KIRISH

Mazkur maqola Shekspirning “Romeo va Julyetta” hamda “Hamlet” asarlarida uchraydigan erkalovchi birliklarning sintaktik tuzilishini aniqlash, ularning o'zbek tilidagi tarjima variantlarida qanday ifodalanganini solishtirish hamda sintaktik vositalar orqali hissiy-estetik ta'sirni saqlab qolish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalalarini yoritish, shuningdek, sintaksisning badiiy-estetik funksiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Badiiy tarjimada har doim ham aslyat matnining sintaktik tuzilishini saqlashning imkoni bo'lmaydi, ayniqsa aslyat va tarjima tillari qardosh tillar bo'lmaganda. Avvalambor, tarjimada sintaktik tuzilishning saqlanishi – bu aslyat matnidagi gap tuzilishi, so'z tartibi va grammatik konstruksiyalarning tarjimada ham imkon qadar o'sha shaklda saqlanishi, ya'ni, tarjimon matnni maqsad tilida ifoda etayotganda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va holning gapdagi tartibi va uslubini iloji boricha o'zgartirmaslikka harakat qilishidir.

Tadqiq etilayotgan tillar turli til oilalariga mansub bo'lgani bois, tipologik va genetik jihatdan farq qiladi: Hind-Yevropa tillar oilasining roman-german guruhiga mansub ingliz tili – analitik til bo'lib, unda gapdagi so'z tartibiga qat'iy rioya qilinadi va fe'l zamonlari yordamchi fe'llar orqali ifodalanadi. O'zbek tili Oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga kiradi va agglyutinativ til hisoblanadi, ya'ni unda affiksatsiya keng rivojlangan. Masalan, ingliz tilidagi – *I love you* – gapidagi so'z tartibini (subject + verb + object) buzib bo'lmaydi; o'zbek tilida ushbu so'zlar o'rin almashganda, ma'no saqlanadi (*men seni sevaman; men*

*sevaman seni; seni men sevaman va h.k.). Shuningdek, ingliz tilida egalik olmoshi o'zbek tilida egalik qo'shimcha orqali ifodalanishini kuzatishimiz mumkin: **my darling – azizam; you are my love** gapining ma'nosini bitta so'z va suffikslar yordamida ifodalasa bo'ladi – **muhabbat + im + san.***

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarjimada asliyatdagi gapning sintaktik tuzilishini saqlash borasida turli olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. I. G'ofurov, O. Mo'minov va N. Qambarov grammatik muvofiqlikni ikki qismga ajratib (morfologik va sintaktik), u to'liq, qisman va nomuvofiq bo'lishini ta'kidlashgan. Hech bir tilning grammatikasi boshqa tilning qonun-qoidalariga to'laqonli mos kelmaganligi bois, ushbu olimlar bir tildagi matnni ikkinchi tilga so'zma-so'z tarjima qilishning imkonini yo'q degan xulosaga kelishgan va aksariyat hollarda tarjimon asliyatning ma'nosini imkon qadar chuqurroq anglab, so'ngra esa anglashilgan ma'noni ayni tilga xuddi asliday tasvirlashga urinmog'i lozimligini ta'kidlaganlar (I. G'ofurov, O. Mo'minov & N. Qambarov, 2012).

Shekspir tilida murakkab sintaktik tuzilish, arxaik birliklar va poetik obrazlar mavjud va ular tarjimada turlicha aks ettirilgan. Mashhur tarjimashunos-olimlar P. Nyumark, J. Ketford, E. Nayda tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalalarini tadqiq etganlar. Xususan, Ketford tarjimada til birliklarining grammatik o'zgarishlari va sintaktik transformatsiyalarini tahlil qilib, ularni ekvivalentlik darajasini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rsatadi (Catford, 1965). Nyumark esa badiiy matn tarjimasida ifoda vositalarining semantik va hissiy qiymatini saqlashni tarjimonning asosiy vazifasi sifatida talqin etadi (Newmark, 1988). Ushbu yondashuvlar Shekspir asarlaridagi erkalash ohangini tarjimada qayta yaratish jarayoniga ham bevosita daxldor.

METODLAR

Maqolada qiyosiy-deskriptiv, strukturaviy semantik va tarjima tahlil usullari qo'llanildi. Avvalo, asarlardagi erkalash ifodalarini aniqlash uchun asliyat matni o'zbekcha tarjimalar bilan o'zaro solishtirildi. Har bir erkalovchi so'z, ibora yoki gap sintaktik tuzilishi va funksional yuklamasiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Shu asosda ularning grammatik shakllanishi, so'z tartibi, murojaat shakllari va emotsional bo'yoqdorlik darajasi tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Obyekt asarlarimizdagi erkalash iboralarini sintaktik ifodalanishi va tarjimada qanday aks ettirilganligi, shuningdek, tarjimada sintaktik ekvivalentlikka qay darajada erishilganligiga nazar solamiz. Bunda asliyatda aniqlangan erkalash iboralarining tarjimada strukturasiga ko'ra, ya'ni so'z, so'z birikmasi, gap va matn orqali, shuningdek, gapdagi vazifasiga ko'ra ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, undalma va uyushiq bo'laklar orqali namoyon bo'lishini solishtiramiz:

U. Shekspir (Act 3 Scene 5)	ROMEO <i>It was the lark, the herald of the morn, No nightingale: look, love, what envious streaks Do lace the severing clouds in yonder east. Night's candles are burnt out.</i>
M. Shayxzoda tarjimasi (125-bet)	ROMEO <i>U, saharga jarchi bo'lgan to'rg'ayning o'zi. Bulbul emas. Sevikli yor, ana, qarab ko'r; Bulutlarning ortidagi baxil saharni, So'nmoqdadir kechalarning shamchirog'lari.</i>

<i>J.Kamol tarjimasi (101-bet)</i>	<i>ROMEO Bulbul emas, tong jarchisi to'rg'ay edi u. Qara, sevar yorim, mayin qizg'ish shu'lalar Kun chiqarda bulutlarga bermoqda jilo.</i>
--	---

Julyetta eriga vidolashuvni kechiktirish niyatida hali tong otmaganligini aytadi. Unga javoban Romeo mehr-muhabbat ila uni aksiga ishontirmoqchi bo'lib, gap orasida "love" deb erkalaydi. Ushbu erkalash vokativi 2-shaxsga qaratilgan murojaatdir. Tarjimalarda semantik ekvivalentlik mavjud bo'lsa-da, shakliy nomuvofiqlik kuzatiladi – ingliz tilida erkalash vokativi bitta so'z bilan ifodalangan bo'lsa, tarjimalarda so'z birikmasi sifatida namoyish etilgan, ammo shunga qaramay, tarjimalarda adekvatlik darajasi yuqoriligini ta'kidlashimiz mumkin. Ehtimol, misraning vazniga sodiq qolish maqsadida Shekspir "my love" iborasida ellips qo'llagandir. M. Shayxzoda o'z tarjimasida so'z shakliga sodiq qolgan bo'lsa, J. Kamol kontekstual ma'noga urg'u bergan va egalik *-im* qo'shimchasini qo'shgan.

Navbatdagi misolimizda so'z birikmasi o'zbek tiliga bitta so'z orqali o'girilishini ko'rishimiz mumkin:

<i>U. Shekspir (Act 4, Scene 5)</i>	<i>QUEEN Alas, sweet lady, what imports this song?</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi (175-bet)</i>	<i>MALIKA Qumriginam, qo'shig'ing ma'nosi nima?</i>
<i>J. Kamol tarjimasi (330-bet)</i>	<i>MALIKA Evoh!.. Jonim, bu qo'shiqning ma'nosi nima?</i>

Ushbu misolimizda Ofeliyaning fe'l-atvoridan xavotirga tushgan Malika Gertruda Ofeliya kuylayotgan qo'shiqni ma'nosini so'raydi. Bunda Ofeliyaning ruhiy holati va tushkunligidan xabardor Malika Gertruda unga yumshoqlik bilan "sweet lady" deb murojaat qiladi (to'g'ridan-to'g'ri tarjimada "shirin / go'zal xonim"). Ingliz tilidagi gap turi (so'roq gap) tarjimada ham saqlangan va erkalash so'z birikmasi tarjimalardagi bitta so'z + *-im* egalik qo'shimchasi orqali taqdim qilingan (*-im* qo'shimchasi bunda erkalash haroratini oshirish va yumshatishga xizmat qiladi). Tarjimalarda asliyatdagi erkalash vokativi saqlangan va vergul(lar) bilan ajratilgan. J. Kamol *Evoh!* undovini ham saqlab qolgan. (Iboraning ma'nosiga keladigan bo'lsak, "qumriginam" va "jonim" so'zlari leksik-semantik jihatdan ekvivalent emas, ammo juda adekvat ekanligiga guvohmiz. "Go'zal xonim" iborasi rasmiy va baholashdek tuyulib, erkalash darajasini pasaytirgan bo'lar edi. Kontekstdagi mavjud mayinlikni ushbu iboraning leksik ekvivalenti yetkazib bera olmaydi).

Obyekt asarlarimizda erkalash gap va matn shaklida aks ettirilish misollari ham mavjud:

<i>U. Shekspir (Act 2 Scene 2)</i>	<i>ROMEO It is my lady, O, it is my love! O, that she knew she were!</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi (67-bet)</i>	<i>ROMEO Oh malikam, oh sohibam, ishqum savdom sen! Bilarmikin u o'zining shu mavqeini?</i>
<i>J. Kamol tarjimasi (47-bet)</i>	<i>ROMEO O, sevgilim, go'zal yorim, ishqim, malikam, Bir malaksan, jonim, o'zing bilarmikansan?</i>

Ushbu misolimizdan ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi sintaktik tuzilish tarjimada saqlanmagan: undov (*O*) yordamida ulangan ikkita sodda gapdan (*It is my lady* va *It is my love*) iborat qo‘shma gap M. Shayxzoda tarjimasida undov-vokativ gapdan (*Oh malikam, oh sohibam*) iborat inversiv sodda gap (*ishqu savdom sen*), J. Kamol tarjimasida undov-vokativ (*O, sevgilim, go‘zal yorim, ishqim, malikam*) to‘liqsiz sodda gap (*bir malaksan*).

Asarlarda nuqul erkalashdan iborat matnlar ham uchrab turadi. Misol uchun:

U. Shekspir (Act 4 Scene5)	NURSE <i>Mistress! what, mistress! Juliet! fast, I warrant her, she: Why, lamb! why, lady! fie, you slug-a-bed! Why, love, I say! madam! sweet-heart! why, bride!</i>
M. Shayxzoda tarjimasi (150-bet)	ENAGA <i>Beka xonim! Julietta, hu! Shuncha qattiq, a! Qo‘zichog‘im, xonimginam! Hoy uyquchi qiz! Qani, jonim, hoy jonginam, turing, kelinchak!</i>
J. Kamol tarjimasi (125-bet)	ENAGA <i>Hoy, oyim qiz! Hoy bekachim! Hoy Julietta! Qo‘zichog‘im! Uyg‘ondingmi? To‘shakdamisan? Endi tura qoling, jonim! Yangi kelinchak!..</i>

Ma‘lumki, matn – bu bir nechta gaplarning mantiqan, mazmunan va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan yaxlit nutq birligidir. Ushbu parchada to‘liqsiz undov gaplardan iborat matnda enaga Julyettani suyib erkalayapti. Tarjimalarda ham undov gaplar saqlangan, ammo J. Kamol *you slug-a-bed (sen uyquchi)*ni so‘roq gap shakliga *Uyg‘ondingmi? To‘shakdamisan?* deb o‘giran. M. Shayxzoda esa *turing* imperativini gap orasiga qo‘shgan.

Yuqoridagi misollarda erkalash so‘z, so‘z birikmasi, gap va matnda, asosan, vokativ, ya‘ni, murojaat shaklida aks ettirilgan. Bilamizki, vokativ gapning asosiy bo‘laklariga kirmaydi va ko‘pincha vergul bilan ajratiladi. Biroq, asarlarda erkalash ma‘nosini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol, shuningdek, undalma va uyushgan bo‘lak bo‘lib kelishini ham aniqladik:

U. Shekspir (Act 2 Scene 2)	ROMEO <i>How doth my lady? Is my father well?</i>
M.Shayxzoda tarjimasi (67-bet)	ROMEO <i>Xonim qalay? Qanday ekan dadamning holi?</i>
J. Kamol tarjimasi (47-bet)	ROMEO <i>Mening sevar yorim qalay? Otam tuzukmi?</i>

Asliyatda ham, tarjimalarda ham so‘roq gaplarda “my lady”, “xonim”, “mening sevar yorim” ega bo‘lib kelgan. Bunda *my lady* (ot birikmasi) – egalik olmoshi va ot; *xonim* – ot, *mening sevar yorim* (ot birikmasi) – egalik olmoshi + sifat-dosh + ot +-im yordamida ifodalangan.

Kesim – gapning asosiy bo‘lagi bo‘lib, ega bilan birga gapning predikativ asosini tashkil qiladi. Ushbu parchada asliyatda mavjud bo‘lgan “*Sen men boqqan eng chiroyli go‘dak eding*” ma‘nosidagi erkalash tarjimada yo‘qolgan. Ushbu jumlada *the prettiest babe* gapning kesimi sifatida kelgan:

<i>U. Shekspir</i> (Act 1 Scene 3)	<i>NURSE</i> <i>Peace, I have done. God mark thee to his grace!</i> <i>Thou wast the prettiest babe that e'er I nursed:</i>
<i>M.Shayxzoda tarjimasi</i> (46-bet)	<i>ENAGA</i> <i>Allaqachon jim turibman, xudo asragur,</i> <i>Hech kimni ham sencha yaxshi boqqan emasman. –</i>
<i>J. Kamol tarjimasi</i> (28-bet)	<i>ENAGA</i> <i>Xo'p. Tugatdim, Xudoyimning o'zi asrasin,</i> <i>Hammadan ham sevib, asrab o'stirdim seni,</i>

Navbatdagi parchada erkalash elementi gapda aniqlovchi sifatida kelishini kuzatamiz:

<i>U. Shekspir</i> (Act 1 Scene 3)	<i>NURSE</i> <i>The pretty wretch left crying and said 'Ay.'</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi</i> (45-bet)	<i>ENAGA</i> <i>Tushmagur qiz dami o'chib birdan dedi: "Ha!"</i>
<i>J. Kamol tarjimasi</i> (27-bet)	<i>ENAGA</i> <i>Xa, shundoq deb javob berdi qizim tushmagur.</i>

Quyidagi misolda *my true knight* to'ldiruvchi sifatida kelyapti, ammo tarjimalarda ushbu erkalash iborasi oddiygina *unga* deb tarjima qilingan va M. Shayxzoda tarjimasiga erkalash elementi butkul yo'qolgan bo'lsa, J. Kamolning tarjimasida *sevar yor* iborasi qo'shilgani bois, to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasada, erkalash qisman saqlangan:

<i>U. Shekspir</i> (Act 3 Scene 2)	<i>JULIET</i> <i>O, find him! give this ring to my true knight,</i> <i>And bid him come to take his last farewell.</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi</i> (115-bet)	<i>JULYETTA</i> <i>Topgin tezroq! Shu uzukni unga ber darrov;</i> <i>Unga aytki: "Meni kechir!" demoqchi edim.</i>
<i>J. Kamol tarjimasi</i> (91-bet)	<i>JULYETTA</i> <i>Shu uzukni bergil unga, kelsin <u>sevar yor</u>.</i> <i>Toki xayr, alvido deb aytay so'nggiz bor.</i>

Gapda erkalash hol sifatida aks ettirilishi kam uchrasa-da, asarlarimizda bunga misol topishga muvaffaq bo'ldik:

<i>U. Shekspir</i> (Act 2 Scene 3)	<i>FRIAR LAURENCE</i> <i>What early tongue so sweet saluteth me?</i> (Sweetly – elliptical)
<i>M. Shayxzoda tarjimasi</i> (77-bet)	<i>LAVRENTIY</i> <i>Tong otarda bu mehribon salom kimdandir?</i>
<i>J. Kamol tarjimasi</i> (57-bet)	<i>ROHIB LORENZO</i> <i>Tongda shirin salom berib, kim keldi ekan?</i>

Hol – ish-harakatning belgisini bildiradi va ingliz tilida ko'pincha sifatga *-ly* qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Asliyatda misraning metrik vazniga jumlani sig'dirish maqsadida *sweetly – sweet* deb qisqartirib berilgan. M. Shayxzoda va J. Kamol tarjimalarida *sweet – mehribon* va *shirin* aniqlovchi bo'lib kelmoqda.

Badiiy adabiyotning dramaturgiya janri asarda monolog va dialoglarning ko'p bo'lishini taqozo qiladi. Ushbu monolog (solilokuy) va dialoglarda tez-tez murojaat ishlatilishi tabiiy holdir. Bizning obyekt asarlarimizda ham predmetimiz bo'lmish erkalash iborolari to'g'ridan-to'g'ri murojaatda ko'p uchraydi. Ushbu murojaatlar gapda undalma vazifasini bajaradi:

<i>U. Shekspir (Act 3 Scene 1)</i>	<i>KING CLAUDIUS Sweet Gertrude, leave us too; For we have closely sent for Hamlet hither,</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi (280-bet)</i>	<i>QIROL Sen ham aziz Gertrudam, bir pastga chiqsang, Biz Hamletni bu yerga keltirmoqchimiz.</i>
<i>J. Kamol tarjimasi (57-bet)</i>	<i>QIROL Gertrudam, sen ham chiqib turgaysan endi Biz Hamletni chaqirtirdik bu yoqqa sekin.</i>

Uyushgan bo'laklar gapda bir xil sintaktik vazifani bajaruvchi teng huquqli so'zlar va so'z birikmalari bo'lib, vergul yoki bog'lovchilar orqali bog'lanadi. Erkalash so'z va iboralarining gapda uyushib kelishi erkalash haroratini oshirgani bois, asarlarimizda bunday misollar bir talay:

<i>U. Shekspir (Act 2 Scene 1)</i>	<i>LORD POLONIUS (Reads) "To the celestial and my soul's idol, the most beautified Ophelia," –</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi (45-bet)</i>	<i>POLONIY (O'qiydi) "Jonimning nigori, ilohi, sohibi jamol Ofeliyaga"</i>
<i>J. Kamol tarjimasi (258-bet)</i>	<i>"Samoviy iloham, suyukli sanamim, sohibjamol Ofeliyaga"</i>

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarjimada, ayniqsa badiiy tarjimada, asliyatdagi sintaktik strukturani saqlash mushkul. Bunga sabab tadqiq etilayotgan tillar turli til oilalariga mansubligi va har bir tilning gap tuzilishiga doir o'z qonun-qoidalari mavjudligi hamdir. Bundan tashqari, badiiy tarjimon o'z mahsulida ma'no, rangdorlik, muallif ovozi va uslubi, she'riyatda esa misraning vazni, ohangi va qofiyasi kabi ko'plab muhim jihatlarni inobatga olishi zarur. Tarjima ushbu sanab o'tilgan talablarning barchasiga javob berishi uchun ba'zida sintaktik strukturaga sodiq qolish ikkinchi darajali vazifaga aylanadi. Bizning fikrimizcha, sintaktik strukturaga sodiq qolish ekvivalentlikka erishishning shartlaridan biri va texnik hujjatlar tarjimasida ahamiyatlidir, ammo badiiy tarjimada guvoh bo'lganimizdek, buning imkoni bo'lmasligi mumkin. Shunday ekan, badiiy tarjimon tilning leksik, semantik va grammatik, linvokulturologik va lingvopragmatik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tarjimaga yondashmog'i zarur va dolzarb.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gofurov, I., Mominov, O., & Kambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Tafakkur-Bo'stoni.
2. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.

3. Catford, J. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. Oxford University Press.
4. Nida, E. A. (2001). *Language, Culture, and Translating*. Shanghai Foreign Language Education Press.
5. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Fan nashriyoti.
6. Shakespeare, William. (1984). *Romeo and Juliet* (Edited by G. Blakemore Evans). Cambridge University Press.
7. Shekspir, V. (1981). *Tanlangan asarlar: I-jild*. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
8. Shekspir, V. (2008). *Saylanma. Uch jildlik. Ikkinchi jild*. Fan nashriyoti.
9. Sirojiddinov, Sh., Odilova, G. (2001). *Badiiy tarjima asoslari*. Mumtoz so'z.